BOSHLANG‘ICH SINFLARDA LIRIK JANRGA XOS SHE’RIY MATNLAR USTIDA ISHLASH

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna
GulDPI “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
Qurbonboyeva Zuhra Davlatboy qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda boshlang‘ich snf o‘quvchlari uchun she’riyat qay darajada muhim ekanligini ko‘rsatilgan, shuningdek, hissiyotni ifoda etish, tasavvurni kengaytirish, nutqiy ravonlikni oshirish ham ko‘zda tutilgan. Turli xil interfaol metodlar orqali she’riy matnlar tahlili bilan ishlash va boshlang‘ich sinflarda she`riy asarlarning o‘ziga xos xususiyati, uni o‘rganishga tayyorgarlik, she’riy asar matni tahlili xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: she’riyat, shoira, ma’naviyat, komil inson, she’riy asarni o‘qishga tayyorgarlik, adabiy tahlil va talqin, didaktik qoida, pedagogik texnologiya.

Abstract: this thesis not only shows how important poetry is for elementary school students, but also provides for expressing emotions, expanding imagination, and increasing speech fluency. We will get acquainted with the analysis of poetic texts through various interactive methods, and in primary classes, we will talk about the characteristics of poetic works, preparation for studying them, and the analysis of the text of a poetic work.

Key words: poetry, poetess, spirituality, perfect person, preparation for reading a poetic work, literary analysis and interpretation, didactic rule, pedagogical technology.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo‘lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o‘qib o‘rganiladi. “O‘qish savodxonligi” darsliklariga, asosan, hikoya, she’r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o‘qitiladi.

She’r ohang jihatidan ma`lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She’riy nutqni ohang jihatidan ma`lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me’yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi. She’rni o‘qiganda

kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she’r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, lirik va epik she’rlar o‘qitiladi. She’riy hikoya, she’riy ertaklarda syujet, ya’ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she’r “biror hayotiy voqea-hodisa ta`sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she’rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta’sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”.

Badiiy asar tahlil va talqini har jihatdan yetuk va komil inson tasvirini o‘rganishga qaratilishi (sotsialistik jamiyat kishisini — yasama obrazning tadqiqiga emas) adabiyotning bosh vazifasi (insonning ezgu tuyg‘ulari tarbiyasi)ni — adabiyot ilmining mazmunini tamoman o‘zgartirdi. She’riy ohangni his qilmaslik, matn so‘zlarini to‘la tushunib yetmaslik she’r yodlashni zerikarli mashg‘ulotga aylantiradi. Ma’nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi.

“... Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo‘q. Ham m a qismlar butunga buysungan, hammasi bitta maqsadga yo‘naltirilgan, hammasi birlikda bitta go‘zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi”.

Boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlarni o‘rganish orqali ularni tarbiyalab ham boramiz. Chunki har bir asar va undan chiqarilgan xulosa bolalarning bilimli, saviyali, odob-axloqli bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan 4-sinf “O‘qish savodxonligi “ dasrligidagi Halima Ahmedovaning “Tabiat darsi” she’rini birgalikda tahlil qilamiz. She’r nomi qandaydir ilmiy narsalar haqida aytmoqchidek tuyulgan bo‘lsa-da, aslida unday emas. Chunki bu she’r orqali Parij, London shaharlariga borsang ham, o‘z tug‘ilgan go‘shangni qo‘msashing, unga talpinishing she’rda ochiq va tushunarli tarzda bayon etilgan:

“...Bir kuni mehmonga borsak qaygadir,
Qo‘msayman nur to‘la supachamizni.
Ichikib qolasan, sog‘inib darrov,
O‘zimizning eski kulbachamizni...”

Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan makoniga intilib, uni jon-dilidan sevib yashaydi. O‘quvchilarga Vatanni sevish, uni ardoqlash, xizmatida bo‘lish, Vatan ravnaqi uchun munosib hissa qo‘shishlarini o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining eng asosiy vazifalaridandir. Chunki bola uchun o‘z ustozidan “ideal” inson bo‘lmaydi.

Vatandan uzoqqa ketib yashayotganlar ham aslida o‘z yurtini qo‘msashi, unga intilishi, ammo ba’zi kela olmay qolib ketganlarning qayg‘u-alamlari she’rda aks etgan:

O‘g‘lim,Vatanidan ketganlar asli,
Ruhni tashlab, olib ketganlar tanni.
Dunyo boyligini sig‘dirolsang ham,
Jomadonga joylab bo‘lmas Vatanni!

She’riy asarni o‘rganishni quyidagi kabi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

1. She’r matni tahlilidan oldin o‘quvchilarni she`rni o‘qish va tushunishga tayyorlovchi, ularni fikrlashga undovchi metodik ishlar amalga oshiriladi. Bunda she’r mavzusiga bilan aloqador topishmoqlardan, afsonalardan foydalanish bir usul sifatida qo‘llanishi mumkin:

- Vatanni sotgan er bo‘lmas.
- Ona yurting omon bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas

Shuningdek, Vatan haqida berilgan afsona va rivoyatlar, xalq sevadigan vatanparvar insonlar haqida aytishimiz lozim. Masalan, Shiroq. U o‘z vatanini himoya qilish uchun jonini xatarga qo‘yishni lozim bildi.

Savol: Bugungi darsimizda qaysi mavzudagi asarni o‘rganar ekansiz?

2. O‘quvchilarning Vatan haqidagi dastlabki tushunchalarini aniqlash. Buning uchun biz “Zanjir” metodini qo‘llaymiz. Unda bolalarni 3 guruhga bo‘lamiz va har bir guruh o‘z zanjirini uzmasdan Vatan haqida she’r hamda maqollar aytishadi.

3. Xattaxtaga mavzu – “Tabiat darsi” (Halima Ahmedova) yoziladi. O‘quvchilardan she’r muallifining yana qaysi she’rlarini o‘qib o‘rganganliklari va ularning qaysi mavzuda ekani haqida suhbat o‘tkaziladi hamda shoir haqida qisqa ma’lumot beriladi:

Halima Ahmedova - “Ko‘zimning tili”, “Tungi marvaridgullar”, “Erk darchasi”, “Tiyramoh”, “Shafaq ibodati”, “Yosuman gulning soyasi”, “Yashil”, “Nigoh qiblasi” kabi she’rlar muallifi, shoira. Uning kitoblarida insonni yaxshilikka boshlash, ma’nan poklanish, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari ifoda etilgan.

4. She’r bilan tanishtiriladi va o‘quvchilarning she’rdan olgan dastlabki tushunchalari aniqlanadi

5. She’r matni ustida ishlash o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish bilan bog‘lab olib boriladi. − Birinchi to‘rtlikni o‘qing. Unda qaysi so‘z va iboralar o‘z ma’nosida qo‘llanmagan? Ularning qaysi ma’noda qo‘llanganini izohlashga harakat qiling.

− Quyidagi to‘rtlikning qaysi misralarida jonlantirish qo‘llangan? Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?

Ajib hayratingda orzu shu’lasi,
Parvozga shaylangan qanotdir yo‘ling…

Mustaqil ish. 1-topshiriq: She’rni ichingizda qayta o‘qing. Qaysi misrada o‘xshatish borligini aniqlang.

Parvozga shaylangan qanotdir yo‘ling.

2-topshiriq. She’r matni asosida xattaxtaga yozilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang: ajib, hayrat, shaylanmoq, qo‘msamoq, ichikib, kulbacha, jomadon.

3- topshiriq: Shoir quyidagi misralarda nimalarni nazarda tutadi?

O‘g‘lim, Vatanidan ketganlar asli
Ruhni tashlab, olib ketganlar tanni.

4- ijodiy ish uchun topshiriq: She’r mazmuniga mos rasm chizish.

She’rdan olgan taassurotingizdan foydalanib, Vatan, unga xizmat qilish, e’zozlash haqida 4-5 gapli matn tuzing.

Xulosa qilib aytganda, she’rni o‘qiganda boshlan ich sinf o‘quvchilari tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. She’riy hikoya, she’riy ertaklarda syujet, ya’ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she’r “biror hayotiy voqea-hodisa ta’sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she’rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta’sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”. Lirik she’rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bunday holda she’riy san’at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, she’r ma`nosining satrlar, so‘zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o‘quvchilar she’rdagi obrazlilikning mag‘zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma’noni o‘qish mehnattalab ishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdixadirovna, U. D. (2022). The role of digital pedagogy in the development of student oral and written speech in primary school mother tongue lessonst.

2. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, *6*, 696-700.

3. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, *3*(25), 159-163.

4. Dilrabo, E., & Dildora, U. (2023). Modern Approaches Natural Science Lessons.

5. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X. va b. O‘qish kitobi. 4- sinf uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis. 2020.

6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2019.

7. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 4-sinf darsligi. –T.: Novda edutainment, 2023.

8. G‘ulomova X. O‘quvchilarning matn ustida ishlashi//maqola. Til va adabiyot ta’limi, 1994.

9. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINF O‘QUVCHILARINI ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).

10. Utanbayeva, D. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA SAMARALI TAYYORLASHDA BADIIY MATNLAR BILAN ISHASHNING AHAMIYATI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, *2*(4), 27-31.

11. Utanbaeva, D., & Sodiqboyeva, A. (2024, May). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING TEXT ANALYSIS IN THE LESSONS OF” READING LITERACY. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 156-159).

12. Utanbayeva, D., & Sa’dullayeva, D. (2024). CONTENT OF TEACHING